



SOLIQ TERMINLARINING MORFOLOGIK AFFIKSLAR BILAN YASALISHI

Seitmatov Sarvar Ergash o‘g‘li
ToshDO‘TAU magistranti
Sarvarseitmatov7@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15204506>

Annotatsiya: Ushbu maqolada soliq sohasi atamalarining morfologik affikslar bilan yasalishi haqida so‘z boradi va misollar bilan isbotlab o‘tiladi. Shu bilan birga soliq sohasi terminologiyasida sodda terminlardan yasama terminlarning kelib chiqishi haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: soliq, affiks, yasama, tub, termin, terminologiya

Terminologik tizimlarning boyib borish yo‘llari turlicha bo‘lib, ulardan eng keng tarqalgani so‘z yasalishi hisoblanadi. Adabiy tildan farqli o‘laroq, terminlarni yasalishida, asosan, *semantik, morfologik va sintaktik* usuldan foydalaniladi.

Hozirgi bosqichda soliq sohasida qo‘llanayotgan tub terminlarning soni yuzdan ortiqdir. Bular jumlasiga asli o‘zbekcha [ba‘zilar umumturkiy] yoki o‘zlashma [ular o‘zi doir tilda yasama yoki qo‘shma bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘zbek tilida morfematik qismlarga ajratilmasligi tufayli tub maqomini oladi] terminlar kiradi. Mana shunday tub, ya’ni noyasama soliq terminlar sirasiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: garov, ish, buyum, boy, bozor, qiymat, daromad, narx, qarz, raqobat, savdo, tarif, tovar, davlat, va b. Misollardan ko‘rinib turibdiki, hozirgi bosqichda o‘zbek tilining soliq terminologik tizimida tuzilishi jihatidan sodda, yaxlit o‘zaknegiz sifatida qaraladigan tub terminlar ham ancha o‘rinni egallar ekan.

Soliq terminologiyasida morfologik affikslar bilan yasalgan terminlar talaygina. Ularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin.

1. *-chi* qo‘shimchasi birinchi galda, turli kategoriyalarga oid shaxs nomlarini yasab keladi. Soliq terminologik tizimida ham u soliqning biror sohasida ish olib boruvchi shaxs ma‘nosidagi ko‘plab terminlarni yasab keladi: soliqchi, xazinachi, ijarachi, iste‘molchi, ta‘minlovchi

2. *-ma* affiksi o‘zbek tilida xilma-xil ma‘noni ifodalovchi leksemalar yasaydi. Uning ayrimlari terminologik tizimlarda birmuncha faol ekanligini qator ilmiy ishlar misolida ko‘rish mumkin. Bu affiks yordamida, garchi kam miqdorda bo‘lsa ham, har holda ayrim soliq terminlar yasalgan: ustama, uyushma, birlashma, tuzilma, buyurtma, bo‘linma, undirma va boshqalar.

3. *-kor* affiksi ishtirokida: Mazkur affiks asosdan anglashilgan narsa-predmetni yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi shaxs otini yasasa [paxtakor, g‘allakor kabi], soliq



terminologik tizimda mavhum otlarga qo‘shilib, ulardan anglashilgan ish-harakat bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti yasaydi: tadbirkor, tejankor va boshqalar.

4. **-dor** affiksi ishtirokida: Bu affiks asosdan anglashilgan narsa-predmetga ega bo‘lgan shaxs nomini hosil qiladi. Masalan, mulkdor, xaridor, qarzdor, nasiyador, hissador va boshqalar.

5. **-noma** affiksi ishtirokida: Bu affiks iqtisodiy terminologik tizimda asosdan anglashilgan narsani ifodalovchi matn, xat va shu kabilarni bildiradi. Masalan, shartnoma, yo‘riqnoma, ruxsatnoma, so‘rovnoma, topshiriqnoma va boshqalar.

6. **-ot** [-at, -yot, -yat] affiksi ishtirokida: Aslida arabiy leksemalar tarkibidagina lug‘aviy birliklarni yasab kelgan mazkur so‘z yasovchi qator terminologik tizimlarda bir qadar faolligi bilan ishtirok etib kelmoqda. Buni quyidagi soliq terminlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin: taqsimot, hisobot, qadriyat, ta‘minot, mahsulot, va boshqalar.

7. **-xona** affiksi ishtirokida: bojxona, zarbxona va boshqalar.

8. Hozirgi iqtisodiyot terminologiyasida, qayd etilgan affikslardan tashqari, garchi kam miqdorda bo‘lsa-da, yana ayrim affikslar ishtirokida terminlar hosil qilingan. Shunday affiksli soliq terminlar jumlasiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

1) **-m [-im]** affiksli terminlar: boqim, bitim, kirim, chiqim.

2) **-v [-ov]** affiksli terminlar: to‘lov, o‘lchov.

3) **-q [-iq]** affiksli terminlar: soliq, sotiq.

4) **-gar** affiksli terminlar: savdogar.

9. **be-** prefiksli so‘z yasovchi model kelib chiqishi jihatidan fors - tojik tiliga xos be- prefiksli ushbu kammahsul model asosdan anglashilgan sifat, fazilatning mavjud emasligi, yo‘qligini ifodalaydi: befoyda

10. **-aro** so‘z affiksli so‘z yasovchi affiks. Asl turkiy -aro [“promejutok”] so‘z - affiksli ushbu sermahsul model ilmiy va texnikaviy sohaga xos terminlarni yasashda faol ishtirok etadi: : xalqaro, korxonalararo, millatlararo, zonalararo, banklararo.

11. **Ser-** prefiksli modelning nafaqat sof o‘zbekcha [turkcha] shuningdek, forscha-tojikcha, arabcha va ruscha-baynalmilal leksik birliklardan ham sifat-terminlar yasashini alohida ta‘kidlash kerak bo‘ladi- *serdaromad*, *sermahsul* va sh.k.

Hozirgi paytda ham tayyor terminlarni o‘zlashtirish jarayoni o‘z faolligini saqlab qolmoqda. Ayni chog‘da, o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va h.k. sohalarini terminologiyasi tizimida o‘zbek tili qonunlariga bo‘ysungan holda muayyan qismi o‘zbek tilining so‘z yasovchi elementlari bilan almashtirilgan ulkan miqdordagi ruscha-baynalmilal terminlar qo‘llanmoqda.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



So‘z yasovchi suffiksi o‘zbek tili affiksi bilan almashtirilgan o‘zlashma - terminlar.

Rus tili terminologiyasi tarkibining salmoqli ulushini so‘z yasovchi suffikslar bilan yasalgan, motivlangan terminlar tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o‘zbek tilining iqtisodiy terminologik tizimida morfologik usul bilan terminlar hosil qilish anchagina faoldir, chunki bu jarayonda xilma-xil affikslardan yoki affiksoidlardan keng foydalanib kelinmoqda. Demak, bozor iqtisodiyotining o‘tish davrida yangi-yangi terminlarning kirib kelishi soliq sohasi terminologiyasining boyib borishiga sabab bo‘ldi. O‘zbek tilining soliq terminologiyasida[atamashunosligida], boshqa terminologik tizimlarda bo‘lganidek, soliqqa oid tushunchalarni birikma vositasida ifodalashning o‘ziga xos bir yo‘li qaror topdi. Bu hol o‘zbek tilida yuzlab soliq terminlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Barcha terminologiyada ham ikki va undan ortiq komponentli birikma terminlardan foydalanilmoqda. Ikki komponentli terminlar: *soliq imtiyozlari, tijorat hisobi, taftish dalolatnomasi* va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madvaliyev A. Termin – terminologik lug‘at – izohli lug‘at // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2008. № 6.
2. Xolmirzayeva S. “Terminlarning yasalish usul va yo‘llari”. Ta'lim fanlari bo‘yicha akademik tadqiqotlar elektron jurnali [5-6-b]
3. <https://lex.uz/docs/-5206072>
4. <https://lex.uz/ru/docs/-841978>
5. <https://lex.uz/docs/-5378966>